

JINOYAT HUQUQIDA JINOYAT TARKIBI TUSHUNCHASI, UNING JINOYAT - HUQUQIY MOHIYATI

Komilov Shermuhammad Shuhratjon o'g'li

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi

“Sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi

2-bosqich 25-guruh o‘quvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada muallif tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurashda, sodir etilgan qilmishlarga jinoyat-huquqiy baho berishda, ularni kvalifikatsiya qilishda jinoyat tarkibi institutining tushunchasi, uning jinoyat-huquqiy ahamiyati xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: jinoyat, jinoyat tarkibi, jinoyat tarkibi elementlari, jinoyat obyekti, jinoyatning obyektiv tomoni, jinoyat subyekti, jinoyatning sublyektiv tomoni.

Аннотация:

В данной статье автором рассматривается понятие института состава преступления, его уголовно-правовое значение в борьбе с преступностью, уголовно-правовая оценка совершенных деяний, их квалификация.

Ключевые понятия: преступление, состав преступления, элементы состава преступления, объект преступления, объективная сторона преступления, субъект преступления, субъективная сторона преступления.

Abstract:

In this article, the author examines the concept of the institution of corpus delicti, its criminal legal significance in the fight against crime, the criminal legal assessment of committed acts, their qualification.

Key concepts: crime, corpus delicti, elements of the corpus delicti, the object of the crime, the objective side of the crime, the subject of the crime, the subjective side of the crime.



Ma'lumki, qadim zamonlardan davlatlar jinoyatchilikka qarshi kurashib keladi. Bu salbiy voqelikning jamiyat va davlat hayotidagi ijtimoiy munosabatlarga qanchalik zararli ekanligi barchaga ma'lum. Shu sababli ham bunday ijtimoiy xavfli qilmish hamda xulq-atvorlarga qarshi murosasiz kurash olib borish har bir davrda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jinoyat huquqi nazariyasida jinoyat tarkibi tushunchasi mavjud bo'lib, bu institut aynan jinoyatchilikka qarshi kurashdagi boshlang'ich jinoyat-huquqiy kategoriya hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida jinoyat tarkibi tushunchasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'rif berilmagan bo'lsa-da, kodeksda belgilangan ba'zi moddalar mazmunidan uning mohiyati va jinoyat-huquqiy ahamiyati qanchalik muhimligini, jinoyat va jinoyat protsessual jihatdan bu institutga to'g'ri yondashish qilmishning jinoyat-huquqiy oqibatini to'g'ri baholashda boshlang'ich nuqta ekanligi ko'rinib turadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 10-moddasida qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi sh¹ deb qat'iy belgilab berilmoqda. Mazkur moddada qonun chiqaruvchi "jinoyat tarkibi" tushunchasini qo'llaydi. Shuningdek, u boshqa kategoriya – qilmish sifatida ham yuritiladi.²

Jinoyat tarkibi tushunchasiga jinoyat huquqi sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlar: xususan, prof. M.Rustamboyev³, M.Usmonaliyev⁴, A.Yakubov, R.Kabulov⁵ o'z fikrlarini bildirganlar. Demak, jinoyat tarkibi deganda, aniq ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb baholash uchun zarur bo'lgan obyektiv va subyektiv elementlar yig'indisi tushuniladi va bu elementlar jinoyat qonunida mustahkamlab qo'yilganligi sababli u yoki bu ijtimoiy xavfli qilmishning jinoyat deb baholanmog'i uchun zarur hisoblanadi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 16-moddasida jinoyat uchun javobgarlik tushunchasi hamda uning asoslari to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib berilgan bo'lib, unga ko'ra jinoyat uchun javobgarlik – jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishida ifodalanadigan jinoyat sodir etishning

¹ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111453>.

² Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Yuridik texnikum o'quvchilari uchun darslik. Mas'ul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020.

³ M.H.Rustamboyev. Jinoyat huquqi (umumiy qism) oliy o'quvlari uchun darslik. T.: – "ILM ZIYO" – 2005.

⁴ M. Usmonaliyev. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: "Yangi asr avlodi", 2010.

⁵ Якубов А.С., Кабулов Р. и др. Уголовное право. Общая часть: Учебник. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2004.



huquqiy oqibatidir. Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, jinoiy javobgarlik, birinchidan, jinoiy javobgarlik o'zining yuridik ma'nosiga ko'ra jinoyat sodir etishning oqibati hisoblanadi. Ikkinchidan, u ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishidan keyin vujudga keladi. Uchinchidan, jinoiy javobgarlik sud hukmi bilan jazo va boshqa ta'sir choralarini qo'llashda ifodalanadigan davlat majburlov chorasidir. To'rtinchidan, u jinoyat huquqiy munosabatlar doirasida vujudga keladi, amalga oshiriladi hamda to'xtatiladi.

Jinoiy javobgarlikning yagona asosi ijtimoiy xavfli qilmishda jinoyat tarkibining barcha tomonlari (elementlari)ning mavjudligi ekan, jinoyat tarkibi tomonlarini batafsil tahlil qilmasdan, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lmaydi. Chunki qonunda jinoiy javobgarlikning yagona asosi sifatida shaxsning sodir qilgan qilmishida Jinoyat kodeksi Maxsus qismining aniq bir normasida nazarda tutilgan huquqiy aktning belgilari bo'lishi kerakligi talab qilinadi.

Jinoyat tarkibining jinoyat huquqi nazariyasida jinoyat tarkibi elementlari deb yuritiladigan obyektiv va subyektiv belgilarning to'rt guruhidan tashkil topgan. Jinoyat tarkibi elementlari tushunchasi jinoyat tarkibining bir tomoniga xos bo'lgan turdosh huquqiy belgilar guruhini anglatadi. Unga obyekt, obyektiv tomon, subyekt va subyektiv tomon kiradi⁶.

Jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi ushbu to'rt unsur mohiyatini to'g'ri tushunish, bilish va baholash o'ta muhimdir, ya'ni:

Jinoyat obyekti – jinoyat sodir etishda jinoiy tajovuz qaratilgan hamda jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabat.

Jinoyatning obyektiv tomoni – jinoyat sodir etishning tashqi tomon belgisi bo'lib, u harakat yoki harakatsizlik tarzida ifodalanadi.

Jinoyat subyeksi – jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishni aybli tarzda sodir etgan, jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga yetgan jismoniy shaxs.

Jinoyatning subyektiv tomoni – jinoyat sodir etishning ichki tomon belgisi bo'lib, u shaxsning o'zi sodir etayotgan jinoyatiga aybning qasd yoki ehtiyotsizlik shaklidagi ruhiy munosabatida ifodalanadi.

Jinoyat tarkibini tashkil etuvchi element belgilarining mazmuniga ko'ra bir jinoyat boshqasidan farq qiladi, masalan, firibgarlikning bosqinchilikdan, o'g'rilikning qasddan odam o'ldirishdan farqi shunda namoyon bo'ladi.

⁶ Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Yuridik texnikum o'quvchilari uchun darslik. Mas'ul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020. 41-b.



Shunday qilib, soʻzimiz yakunida aytish mumkinki, jinoyat tarkibining umumiy tushunchasi biron bir normada emas, balki jinoyat huquqi nazariyasida ishlab chiqiladi va jinoyatning yuridik tavsifini oʻzida ifoda etadi hamda jinoyat tarkibining umumiy tushunchasi ilmiy bilishning muhim bosqichi hisoblanib faqat oʻquv jarayonidagina emas, balki dastlabki tergov organlari va sud faoliyatida sodir etilgan jinoyatni nazariy jihatdan toʻgʻri kvalifikatsiya qilishning nazariy bazasi boʻlib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “Oʻzbekiston”, 2023 y.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111453>.
3. M. Usmonaliyev. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy oʻquv yurtlari uchun darslik. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2010.
4. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Yuridik texnikum oʻquvchilari uchun darslik. Masʼul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020.
5. Якубов А.С., Кабулов Р. и др. Уголовное право. Общая часть: Учебник. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2004.
6. М.Н.Рустамбойев. Jinoyat huquqi (umumiy qism) oliy oʻquvlari uchun darslik. T.: – “ILM ZIYO” – 2005.

